

Своеобразие усвоения содержания обучения в нетрадиционных уроках

Зокирова Нилуфар Дилшод кизи
студентка НамГУ,
Наманган, Узбекистан

Zokirova Nilufar Dilshod qizi
Namangan davlat universiteti talabasi
Namangan, O'zbekiston

NOAN`ANAVIY DARSLARDA TA`LIM MAZMUNINI O`ZLASHTIRISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ta`lim tizimining yangi bosqichi bo`lgan kasb-hunar kollejlarda o`qitishning zamonaviy texnologiyalarini tadbqiq etish o`qituvchilar oldiga noan`anaviy o`qitish tizimini joriy etish vazifasini qo`ymoqda. O`qitish jarayonidagi mavjud an`anaviy ta`lim bilan qurollangan ta`lim muassasalari endilikda o`z oldiga qo`yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga o`zlik qilmoqda.

Taniqli didakt olim M.N. Maxmutovning fikriga ko`ra, o`quv jarayonini tashkil etishning an`anaviy sxemasi o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo`lgan ehtiyojlarini, fanga bo`lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e`tiqodga, e`tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta`minlay olmaydi.

Maktab, kasb-hunar kolleji va oliy o`quv yurtlari o`qituvchilarining ilg`or tajribalari yoritilgan materiallarni o`rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma`lum bo`lishicha, ularning ko`pchiligi o`z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir xildagi o`qitish jarayonlarini qisman o`zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o`zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo`lmaydi.

Shu sababli ham endilikda o`qitishning noan`anaviy modellarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati paydo bo`ldi.

Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o`rganish modeli
- modellashtirish
- o`rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o`quvchi shaxsiga qaratilgan bo`lib ularni boshqacha qilib markazda o`quvchi turgan ta`lim modellari deb ham atashadi. Modellashtirish — real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko`rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda o`quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta`lim olishini ko`zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o`rganish modeli — o`quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta`lim olishini ko`zda tutadigan metod.

O`rganishning tadqiqot modeli — o`quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo`naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko`zda tutuvchi metod. Bu modellar o`quvchining darsdagi faoliyatini faollashtirish, axborot manbalaridan samarali va mustaqil foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Noan`anaviy (ta`lim jarayoni markazida o`quvchi bo`lgan) o`qitish metodlarining axborot manbalarini o`zlashtirishdagi

AFZALLIKLARI

- O`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib kelishi.
- O`z vaqtida aloqalarning ta`minlanishi.

-
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
 - O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
 - Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.
 - O'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi.
 - Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
 - O'z-o'zini baholashning o'sishi.
 - O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
 - Mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchining shakllanishiga yordam berish.
 - Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikralashni ham rivojlantirish.
 - Muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

KAMCHILIKLARI

- Ko'p vaqt talab etilishi.
- O'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.
- „Kuchsiz“ o'quvchilar bo'lganligi sababli „kuchli“ o'quvchilarning ham past baho olishi.

Noan'anaviy darslarda axborot manbalaridan o'rinli foydalanish uchun o'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi..

Maktab, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ilg'or tajribalari yoritilgan materiallarni o'rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi o'z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir xildagi o'qitish jarayonlarini qisman o'zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o'zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo'lmaydi.

Noan'anaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Moliya. 2003y 172-bet.
2. Tolipova N, G'ofurov A. Biologiya ta'limi texnologiyalari, T.: O'qituvchi, 2002 yil, 128- bet.
3. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. Namangan. NamMII. 2004 y. 95- bet.